



O'RTA OSIYO SHAHARSOZLIGIDA ME'MORIY ANSAMBLAR VA SHAHAR MARKAZLARINING SHAKLLANISHI

Usmonov Axrorjon Husen o'g'li

Toshkent arxitektura - qurilish universiteti

Magistrant

usmonovahrer722@gmail.com

Tel: +998908145851

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18857649>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 26-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 28-fevral 2026 yil

KEYWORDS

Shaharsozlik, me'moriy ansambl, shahar markazi, maydon, Chorsu, "qo'sh" usuli, shahar silueti, shahar panoramasi, jamoat binolari, mahalla markazi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'rta Osiyo shaharsozligi tarixida me'moriy ansambllar va shahar markazlarining shakllanish jarayonini yoritishga bag'ishlangan. Unda qadimiy shaharlarda jamoat binolari, mahalla markazlari va turar-joylar o'rtasidagi kompozitsion munosabatlar, ansambl tuzish san'atining rivoji hamda shahar maydonlarining tarixiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi mashhur ansambllar misolida shahar markazi va jamoat hududlarining rejalashtirilganligi, "qo'sh" usuli, maydon va Chorsu tushunchalarining shakllanishi yoritilgan.

Shaharsozlik tarixi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir davrda shaharlar jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini aks ettirgan. O'rta Osiyo hududida qadim zamonlardan boshlab shaharlar ma'lum reja va qonuniyatlar asosida shakllanib, jamoat binolari, mahalla markazlari hamda turar-joylar o'zaro uyg'un holda joylashtirilgan. Bu jarayonda me'moriy ansambl tuzish san'ati muhim o'rin tutgan. Ushbu ishda O'rta Osiyo shaharlarida me'moriy ansambllarning vujudga kelishi, ularning kompozitsion tuzilishi, shahar markazlari va maydonlarning shakllanishi tarixiy manbalar hamda real obidalar misolida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor shahar makonining tasodifiy emas, balki oldindan puxta o'ylangan loyiha va badiiy g'oya asosida tashkil etilganligini ko'rsatishga qaratiladi[1].

Asosiy qism. Shaharsozlik tarixidan bilamizki qadimiy shaharlar ya'ni Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shunga o'xshash shaharlarning tarkibiy qismini jamoat binolari, mahalla markazlari va ularning atrofni qurshab olgan turar-joy binolari tashkil etgan. Shu jamoat binolari va mahalla markazlarining qurilishida ma'lum bir qonuniyatlar aniqlangan. U ansambl yaratish san'atidir. O'rta Osiyoning issiq tabiiy iqlimi qadim zamonlardan buyon shahar qurilishida maydon va ko'chalarning ma'lum tarzda shakllantirilishiga ehtiyoj tug'dirgan. Milloddan avvalgi ming yilliklar o'rtalarida mavjud bo'lgan Bozor qal'a, Burgut qal'a, qal'ali Qir va shunga o'xshash boshqa shaharchalarning jamoat binolari ma'lum darajada ajratib qurilganligini ko'rishimiz mumkin. O'rta Osiyo shaharsozligi tarixi shuni ma'lum qiladiki, me'moriy ansambllar tuzish san'ati qadimdan yuksalib XVI-XIX asrlarda ko'plab yangi usullarni keltirib chiqargan. Shu davrdagi me'morchilik obidalarini ba'zi bir odamlar IX-XIV asrda

saqlanib qolgan osiriy a'tiqalar bilan bilan solishtirgan holda asossiz ravishda keyingi asrlardagi O'rta Osiyo me'morchiligi yo'q bo'lib ketgan deb xulosa qilishgan. Darhaqiqat, XVI-XIX asrda qurilgan imoratlar o'zining geometrik tuzilishi, ranglar va naqshlarining ishlatilishi va mahobati jihatdan temuriylar davridagi binolardan soddaroq bo'lishi mumkin, biroq o'zbek xonliklari davrida jumladan Buxoro va Xivadagi madrasa va xonaqohlarning gumbazlari miyonsaroylari, hujralarining yechimlariga e'tibor beradigan bo'lsak ularda kishini lol qoldiradigan gumbaz ichki naqshlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Misol tariqasida Buxorodagi Ko'kaldosh, Abdullaxon, Miri Arab, Abdulazizxon madrasasining darsxonalari, miyonsaroylari va masjidchalari, bundan tashqari Nodir devonbegi va Xo'ja Zaynuddin xonaqohlari gumbazlarining ichki bezaklarini olishimiz mumkin.

Mahalla ansambllari O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qo'qon, G'ijduvon kabi shaharlari misolida shakllanib, hozirgacha saqlanib kelgan. Bu ansambllar ko'pincha mahalla markazi vazifasini bajargan va shahar hayotida muhim o'rin tutgan. Shuningdek shahar tashqarisida yoki qishloq hududlarida joylashgan mashhur ansambllar ham mavjud bo'lib, ular qatoriga Samarqand viloyatidagi Xo'ja Ahror, Xo'ja Ismoil Buxoriy, Mahdumi A'zam, Qashqadaryo viloyatidagi Xusam ota, Kasbi qishlog'idagi majmua, Buxoro hududidagi Qiz Bibi va Xo'ja O'bon, Navoiy viloyatidagi Qosim Shayx kabi obidalarni kiritish mumkin. Bu ansambllarning asosiy belgisi shundaki, ular hovuz, buloq yoki quduq atrofida uzoq yillar davomida shakllangan. Bu joylar odamlarning to'xtab o'tishi, dam olishi va ziyorat qilishi uchun xizmat qilgan. Shu ehtiyojlar asosida ular atrofida turli imoratlar erkin tarzda, bosqichma-bosqich paydo bo'lgan. Natijada bunday majmualar qat'iy reja asosida emas, balki tabiiy rivojlanish yo'li bilan kengayib borgan. Odatda bu ansambllarning ajralmas qismi sifatida soya-salqinlik beruvchi daraxtlar, gulzorlar va yashil hududlar mavjud bo'ladi. Shu xususiyatlarni hisobga olib, ilmiy adabiyotlarda bunday ansambllar kompozitsiya jihatidan erkin deb ataladigan ansambllar sifatida qaraladi. Me'moriy ansambllar shahar jamoat markazlarida o'zining yirik masshtabi, bezagi va ranglari bilan oddiy turar-joy binolari orasida ajralib turgan. Ularning minora va gumbazlari shahar va qishloqlarning umumiy ko'rinishi - siluetini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ansambl tarkibiga kirmaydigan lekin birgalikda joylashgan binolar majmuasi "kompleks" deb ataladi. Masalan mahalla ichidagi turar-joy guruhlari, do'konlar, ustaxonalar va xo'jalik binolari shunday komplekslarga kiradi. O'rta Osiyo shaharsozligida ansambllar va komplekslar yaratish muhim san'at hisoblangan. Ularning turlari va joylashuvini o'rganish orqali shahar va aholi punktlarining kompozitsion tuzilishini chuqurroq anglash mumkin. An'anaviy shaharsozlikda jamoa markazlari muhim o'rin egallagan. Shahar, turar-joy, savdo, ishlab chiqarish va ma'muriy binolar birgalikda mavjud bo'lgandagina shahar hisoblangan. Ko'p hollarda shaharlar karvon yo'llari kesishgan joylarda shakllangan va bu chorraha shahar markazi - Chorsu deb atalgan. Hozirgi kunda esa Chorsu ko'proq gumbazli savdo binosi ma'nosida ishlatiladi, aslida esa u markaziy chorrahani anglatgan. Dastlab shaharsozlikda jamoat binolari turar-joylardan alohida va balandroq joyda qurilgan. O'rta asrlarga kelib esa faqat bitta bino emas, balki bir nechta jamoat binolari va markazlarini ajratib ko'rsatish zarurati tug'ilgan. Shu asosda ibodat, savdo va ma'muriy markazlardan iborat me'moriy ansambllar shakllangan. Ularning atrofida esa mahalla markazlari paydo bo'lgan. Natijada shaharlar turar-joylar orasida yaqqol ajralib turadigan umumshahar va mahalla markazlaridan iborat tizim sifatida shakllangan. Har bir shaharda ma'muriy binolar oldida farmonlar e'lon qilinadigan maydonlar, bosh bozorlar, savdo

chorrahalar, rastalar, jome masjidlar va madrasalar asosida shakllangan ma'rifiy markazlar mavjud bo'lgan. Bu inshootlar ansambl tarzida qurilib, odatda juft yoki qo'sh binolar, maydon atrofida yoki bitta kompozitsion o'q bo'ylab joylashtirilgan[2].

Yozma manbalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo shaharlaridagi me'moriy ansambllar oldindan puxta rejalashtirilgan holda barpo etilgan. O'sha davrda Xuroson va Movarounnahr yagona madaniy hudud bo'lgani uchun, Eron va Ozarboyjon shaharsozligida ham ansambl tarzida qurilgan binolar maxsus loyihalar asosida bunyod etilgan. Bayhaqiy misolida esa shoh Mas'ud Nishopur va Shadyox shaharlarida oldindan mavjud bo'lmagan dargohlar, maydonlar va saroylarni shaxsan loyihalab, go'zal inshootlar majmuasini barpo ettirgani aytiladi. Maxsus loyiha asosida qurilgan binolar majmualariga tarixan katta e'tibor qaratilgan. Bayhaqiy shoh Mas'udni mohir bunyodkor sifatida ta'riflab, qurilishlar oldindan chizma asosida rejalashtirilgani va qat'iy nazorat ostida amalga oshirilganini yozadi. Bu yerda "maydon" oddiy ochiq joy emas, balki atrofni yirik, bezakli binolar o'rab turgan me'moriy sahna sifatida tushunilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shahar markazlari va maydonlari tasodifan emas, balki aniq me'moriy loyiha asosida bunyod etilgan. Shu jarayon hozirgi ilmiy tilda me'moriy ansambl tuzish san'ati deb ataladi. Boshqa o'rta asr manbalarida ham imoratlarni majmua tarzida qurish an'analari haqida ma'lumotlar bor. Masalan G'ozonxon Tabriz yaqinida muhim qabrlar atrofni maxsus reja asosida obodonlashtirgan. Shuningdek matnda g'isht faqat qurilish materiali emas, balki me'moriy o'lchov birligi - modul sifatida ishlatilgani tushuntiriladi. Buxoro me'morlarining qadimgi chizmalarida barcha elementlar (eshik, deraza, devor qalinligi) g'isht moduliga moslab rejalashtirilganligi bunga dalil sifatida keltiriladi. Qurilish ishlarining nafaqat loyiha asosida, balki aniq mas'ul shaxslar orqali tashkil etilgan. Har bir imoratga rahbar xo'jalar, yozuv ustalari va geometriyani yaxshi bilgan me'morlar tayinlangan. Xo'jalar ishning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilgan, yozuvchilar Qur'on va hadis yozuvlarining to'g'ri va chiroyli bo'lishiga mas'ul bo'lgan, me'morlar esa bino uyg'unligi va chizmalarining to'g'ri bajarilishini ta'minlagan. Xumuliy asarida shaharsozlik ishlarining maxsus chizmalar asosida amalga oshirilgani aytiladi. Amir Shohmurod tomonidan masjidlar, darvozalar va shahar markazidagi Chorsu qayta qurilgani misol qilib keltiriladi [3].

Mualliflar - Bayhaqiy, Rashidaddin va Xumuliy - turli davrlarda me'moriy ansambllar va komplekslar maxsus loyiha, modul va dastur asosida qurilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, tarixda bir joyda bir nechta binoni yagona badiiy g'oya asosida qurishga katta e'tibor berilgan, chunki bu shaharni yanada salobatli va nufuzli ko'rsatgan. Binolar turli funksional guruhlarni - ma'muriy, savdo, madaniy, maishiy va ma'rifiy vazifalarni bajarib, shahar hayotining asosini tashkil etgan.

Avvalo, o'tmishda har bir yirik bino yoki majmua qurilishida mas'ul shaxslar bo'lgan:

- xo'jalar ishni tashkil qilgan,
- yozuvchilar bezak yozuvlariga javob bergan,
- me'morlar esa geometriya va chizmalar asosida binoning to'g'ri va uyg'un qurilishini ta'minlagan.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, shaharlar va maydonlar tasodifiy emas, balki oldindan tuzilgan chizmalar va loyihalar asosida barpo etilgan. Masalan, Samarqanddagi darvozalar, masjidlar va Chorsu kabi markaziy inshootlar aniq reja asosida qurilgan. Shuningdek bir joyda bir nechta binoni yagona badiiy g'oya asosida qurish qadimdan muhim hisoblangan. Chunki bu binolar bir-birining ko'rkini oshirib, shaharni yanada salobatli va

jozibador ko'rsatgan. Hokimlar bunday inshootlar orqali o'z qudratini namoyish qilgan. "Qo'sh" usulida bino peshtoqlari bir-biriga qarama-qarshi qurilib, yagona kompozitsiya markazini hosil qiladi. Bu nafaqat estetik, balki amaliy jihatdan ham foydali bo'lib, issiq kunlarda oradagi maydonda ko'proq soya hosil bo'lishiga xizmat qilgan. Bu usul Movarounnahrda paydo bo'lib, Temuriylar davrida va Alisher Navoiy faoliyati tufayli keng tarqalgan. Boshqa mamlakatlarda kam uchrashi, ammo ayrim joylarda, masalan Bokuda, bu uslubning ta'siri sezilishi aytiladi. Oxirida esa "qo'sh" usulida turli xildagi binolar, madrasa, madrasa-masjid, madrasa-xonaqoh, savdo inshootlari, qabriston majmualari - birgalikda ansambl sifatida qurilgani misollar bilan ko'rsatiladi. Shahar maydonlari va ansambllar qanday shakllangani real tarixiy misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Avvalo, Buxorodagi Hovuzi Nav ansambli misol qilib olinadi. U Juybori Kalon madrasasi va Volidai Abdulaziz masjidi orasidagi katta hovuz atrofida tashkil topgan. Bu majmua tuzilishi jihatidan Labi Hovuzga o'xshagan, lekin farqlanishi uchun alohida nom bilan atalgan. Keyinchalik hovuz yo'qolib, o'rniga transport aylana maydoni qurilgani sababli ansamblning avvalgi estetik ko'rinishi yo'qolgan. Shuningdek Masjidi Kalon, Miri Arab madrasasi va Minorai Kalon birgalikda qo'sh usuliga asoslangan, lekin o'rtasida maydon hosil qilgan ansamblni tashkil etgani aytiladi. Shu sababli u ham "qo'sh", ham "maydon" turiga kiradi. Keyin Samarqanddagi Registon maydoni eng mashhur maydon turidagi ansambl sifatida keltiriladi. Registon hozirgi ko'rinishda dastlab bo'lmagan, ammo vaqt o'tishi bilan hozirgi uch madrasa ya'ni Ulug'bek, Sherdor va Tillakori asosida shakllangan. Ulug'bek XV asrda madrasa va uning qarshisida xonaqoh qurgan, XVII asrda esa Yalangtush Bahodir Sherdor va Tillakori madrasalarini barpo ettirib, Registonning bugungi mashhur kompozitsiyasini vujudga keltirgan [4]. Shahar markazlaridagi maydon ansambllari ikki asosiy kompozitsion o'q kesishadigan joyda shakllangan va ular keng, tantanavor ko'rinishga ega bo'lgan. Registon, Bibi Xonim va Go'ri Amir majmualarining bir chiziq bo'ylab joylashgani shahar makonining oldindan rejalashtirilganligini ko'rsatadi. Registondan qaralganda Go'ri Amir gumbazining ko'rinib turishi shahar kompozitsiyasining aniq o'ylanganligini tasdiqlaydi. Buxorodagi Labi Hovuz Devonbegi majmuasi maydon ansambllarining noyob namunasi hisoblanadi. Avval madrasa qurilib, keyin hovuz, xonaqoh va boshqa binolar qo'shilib, markaziy shahar maydoni shakllantirilgan. Bu jarayon bosqichma-bosqich, lekin yagona badiiy g'oya asosida amalga oshirilgan.

O'rta asr shaharlarida shahar markazining asosi chorrahasi - Chorsu bo'lgan. Ko'plab shaharlarda hozirgacha "Chorsu" va "Registon" nomlari saqlanib qolgan bo'lib, ular tarixan shaharning bosh maydoni vazifasini bajargan. Shaharsozlikda bunday maydonlar nafaqat transport va savdo, balki ijtimoiy va madaniy hayotning markazi bo'lib xizmat qilgan. O'rta asrlarda dastlab shaharlar ark, shahriston va raboddan iborat bo'lib, markaziy tuzilma Chorsu atrofida shakllangan. XIV asrdan keyin esa ko'p markazli shahar tuzilmasi paydo bo'lib, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz va Xiva kabi shaharlarda bir nechta yirik maydon va ansambllar tizimi vujudga kelgan. Shaharga olib kiruvchi asosiy yo'llar odatda salobatli bosh ansambllarga yo'naltirilgan, u yerdan esa ko'chalar mahallalarga tarqalgan. Shu tariqa mahalla markazlari va shahar markazlari yagona kompozitsion zanjirga birlashib, shaharni tirik organizmga o'xshash yaxlit tizimga aylantirgan. Shahar tuzilmasining barqarorligi qadimdan shakllangan bosh chorraha, maydon va savdo rastalarining saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Shaharlar tasodifiy emas, balki aniq g'oya va reja asosida rivojlangan bo'lib, bu holat tarixiy davrlarning turli bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Sayyid Olimxon 1911-yilda Buxoro

taxtiga kelgan bo'lib, u nafaqat mahalliy ta'lim muassasalarida, balki Peterburgda ham uch yil o'qigan. Keyingi davrlarda Buxoro amirlari keskin tanqid qilingan bo'lsa ham XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyaning Markaziy Osiyodagi bosimi natijasida Buxoro amirligi siyosiy va iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolganini inobatga olish zarur. Bu bosimning asosiy maqsadi madaniy va g'oyaviy taraqqiyotni to'xtatish bo'lgan. Shunga qaramay, bu davrda Buxoroda quyidagi muhim ishlar amalga oshirilgan: sug'orish inshootlari qurilgan, saroylar, bog'lar, masjidlar va turar-joy binolari barpo etilgan. Amir Sayyid Olimxon o'zi ham taxtga chiqqach, aholiga yangiliklar bergani, tartib-intizom va obodonchilik ishlarini yo'lga qo'yganini, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga e'tibor qaratganini yozadi. U madrasa qurdirib, turli fanlardan dars beruvchi muallimlarni tayinlagan. Shu sababli bu davr tarixini yangicha nuqtayi nazardan qayta o'rganish zarur hisoblanadi [5].

Shaharlarning uch qismdan iborat tuzilishi haqida gapirilganda, ayrim masalalar hali to'liq aniqlanmaganligi ta'kidlanadi. Ark va shahristonlarning o'lchamlari hamda joylashuvi yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, rabodlarning qanchalik katta bo'lgani va ular doimo devor bilan o'ralgan-o'ralmaganligi aniq emas. Buxoro viloyati Kampir devor bilan o'ralgan bo'lib, u hududni qum ko'chkilari va cho'l xalqlari hujumidan himoya qilgan. Samarqandda esa shaharning janubiy tomonini Devori Qiyomat o'rab turgan. Bundan tashqari, Samarqandning o'rta asr hududi bilan Devori Qiyomat oralig'ida yana bir devor bo'lgan degan taxmin mavjud bo'lib, bu Devori Ko'ndalang nomi bilan bog'lanadi. X-XI asrlarda Samarqand rabodi aynan shu ikki devor oralig'ida joylashgan bo'lishi mumkinligi aytiladi. O'rta Osiyo shaharlarining kelib chiqishi masalasida ilmiy adabiyotlarda ularning feodal ko'shklar asosida vujudga kelgani haqidagi g'oya mavjud bo'lgan. Biroq tadqiqotchilar shaharlarning kelib chiqishi aslida yanada murakkab va ko'p qirrali ekanini ta'kidlaydilar. Olima bu jarayonni savdo va hunarmandchilik rabodlarining feodal ko'shklar atrofida shakllanishi bilan izohlaydi [6].

Shaharlarning kelib chiqishi turli yo'llar orqali shakllangan. Ular feodal ko'shklar atrofida savdo-hunarmandchilik rabodlarining paydo bo'lishi, alohida ko'shklar majmuasi asosida rivojlanishi, karvon saroylar atrofida rabodlarning shakllanishi, bozor joylarida shaharlarning yuzaga kelishi, diniy inshootlar atrofida aholining jamlanishi, qal'a shaharlarning tashkil topishi, antik shaharlarda hayotning qayta tiklanishi hamda feodalizm davrida arksiz shaharlarning paydo bo'lishi orqali rivojlangan. Shaharlarning asosiy rivojlanish sababi sifatida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan hududlarda aholining birlashishi, savdo, sanoat va madaniyat xizmatlarining shakllanishi ko'rsatiladi. Shu sababli shahar markazlari ko'pincha Chorsu - karvon yo'llari kesishgan joylarda joylashgan. Savdogar va hunarmandlar shu yerda to'plangan, shahriston bilan himoyalangan, boshqaruv uchun esa ark qurilgan. Tashqaridan kelgan savdogar va kasb egalari ko'proq shahriston tashqarisida joylashgan. Shuning uchun rabodlarning shakli va hajmi turlicha bo'lgan, bu esa o'sha davrlarga xos xususiyat hisoblanadi.

Xulosa. O'rta Osiyo shaharsozligi tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, shaharlar va ularning markazlari tasodifiy emas, balki aniq reja, kompozitsion g'oya va me'moriy qonuniyatlar asosida shakllangan. Jamoat binolari, mahalla markazlari va turar-joylarning o'zaro uyg'un joylashuvi me'moriy ansambllar orqali namoyon bo'lgan. Bu ansambllar shahar makoniga badiiy yaxlitlik, salobat va tantanavorlik baxsh etgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi Registon, Labi Hovuz, Kalon majmuasi va boshqa ansambllar shaharsozlik madaniyatining yuksak darajada bo'lganini isbotlaydi. "Qo'sh" usuli, maydon

atrofida binolarni joylashtirish, Chorsu atrofida shahar markazini shakllantirish kabi tamoyillar shahar tuzilmasining asosini tashkil etgan. Shu bois O'rta Osiyo shaharsozligi tajribasi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy shahar rejalashtirishda ham muhim ilmiy va amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi: darslik, 1-qism. Toshkent: Cho'lpon, 2009. 160 b.
2. Po'latov X. Shaharsozlik tarixi. Toshkent, 2009.
3. Isamuxamedova D.U. Shaharsozlik asoslari: o'quv qo'llanma. Toshkent: TAQI, 2000. 140 b.
4. Axmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 1995. 215 b.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi (asosiy tushuncha va tamoyillar). Toshkent: O'zbekiston, 2003.
6. SHNQ 2.07.01-03*. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish.

